

**35 YIL: MUSTAQILLIK, MILLIY G'URUR VA BUNYODKORLIK
TIMSOLI**

Elmurotova Dilnoza Baxtiyorovna (PhD, dotsent)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, Radiasiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi, radiatsiya va yadro xavfsizligi ilmiy-texnik markazi, Yadroviy qurilmalarni xavfsiz ekspluatatsiya qilish bo'limi boshlig'i, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul.

Annotatsiya: Ishda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan mustaqillikning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati yoritilgan. Unda mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy qadriyat va an'analarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod ongiga singdirish, shuningdek, jamiyatda vatanparvarlik, milliy g'urur va bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, umumxalq bayramlarining, xususan, Mustaqillik kunining xalqimiz ma'naviy hayotidagi o'rni va milliy qadriyatlarni targ'ib etishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, milliy g'urur, milliy o'zlik, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, vatanparvarlik, bunyodkorlik, ma'naviyat, yoshlar, fuqarolik mas'uliyati, milliy meros.

Har bir xalqning tarixida uning milliy taqdirini, kelajak taraqqiyot yo'lini va ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan muhim tarixiy voqealar mavjud. O'zR davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi ana shunday beqiyos tarixiy voqealardan biridir. Mustaqillikning 35 yilligi nafaqat muhim tarixiy sanani nishonlash, balki o'tgan davrda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, erishilgan yutuqlar va jamiyat ma'naviy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni ilmiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun ham muhim imkoniyatdir. Bugungi kunda Mustaqillik bayramining mazmun-mohiyati tobora kengayib, u xalqimizning milliy g'ururi, Vatanga daxldorlik hissi, tarixiy xotirasi va kelajakka bo'lgan ishonchini

ifodalovchi muhim ma'naviy hodisaga aylanib bormoqda. Milliy mustaqillikning eng muhim ma'naviy natijalaridan biri xalqning o'z tarixini xolis va teran anglash imkoniyatiga ega bo'lganidir.

Tarixiy xotira – millatning o'zligini anglashida, uning kelajakka ishonch bilan qarashida va jamiyatda milliy birlikni mustahkamlashda muhim omildir. Xalqimizning ko'p asrlik tarixi, buyuk davlat arboblari, olimlari, mutafakkirlari, shoir va ma'rifatparvarlarining ilmiy va ma'naviy merosi milliy o'zligimizning ajralmas qismidir. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Amir Temur va boshqa buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi xalqimizning ilmiy va madaniy salohiyati naqadar yuksak ekanini namoyon etadi. Tarixiy merosni o'rganishning asosiy maqsadi faqat o'tmishdagi voqealarni bilish emas, balki ulardan bugungi va kelajak taraqqiyot uchun zarur xulosalar chiqarishdir. Shu ma'noda, tarixiy xotira yosh avlodda milliy g'urur, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy vositadir.

Milliy qadriyatlar har qanday xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy dunyoqarashi va ijtimoiy hayotida shakllangan noyob boylikdir. Ular xalqning urf-odatlarini, an'analari, marosimlari, tili, madaniyati, oilaviy munosabatlari, mahalla hayoti, san'ati va axloqiy me'yorlarida o'z ifodasini topadi.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari zahirida insonparvarlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, saxovat, bag'rikenglik, qo'ni-qo'shnichilik, oila va mahallaga sadoqat kabi yuksak ma'naviy fazilatlar mujassamdir.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Biroq qadriyatlarni saqlash ularni faqat tarixiy meros sifatida muzeylashtirish yoki o'tmish hodisasi sifatida talqin qilishni anglatmaydi. Aksincha, ularning mazmun-mohiyatini zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish, yosh avlodning dunyoqarashi va ehtiyojlari bilan bog'lash muhimdir.



Umumxalq bayramlari jamiyatning tarixiy xotirasi va ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadi. Bunday sanalar xalqni yagona g'oya va umumiy maqsad atrofida birlashtirish, avlodlar o'rtasidagi ma'naviy aloqani mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish imkonini beradi. Ayniqsa, Mustaqillik kuni xalqimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Ushbu bayram mamlakatimizning siyosiy-huquqiy mustaqilligini emas, balki xalqimizning o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z milliy manfaatlari va qadriyatlariga tayangan holda taraqqiyot yo'lidan borish imkoniyatini ham ifodalaydi.

Mustaqillik bayrami doirasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ilmiy konferensiyalar, ko'rgazmalar, madaniy dasturlar, uchrashuvlar va targ'ibot tadbirlari yosh avlodning tarixiy bilimlarini boyitish, milliy o'zlikni anglash va Vatanga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli umumxalq bayramlarini shunchaki tantanali tadbir sifatida emas, balki ijtimoiy-ma'naviy tarbiya vositasi sifatida tashkil etish muhimdir. Milliy g'urur tushunchasi insonning o'z xalqining tarixi, madaniyati, tili, qadriyatlari va yutuqlariga nisbatan hurmat va faxr tuyg'usini ifodalaydi. Mustaqillik yillarida milliy g'urur tuyg'usining yangi mazmun bilan boyishi jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy omillaridan biri bo'ldi. Bugungi avlod o'zining buyuk ajdodlari bilan faxrlanish bilan bir qatorda, ularning ilmiy, madaniy va ma'rifiy an'alarini davom ettirish mas'uliyatini ham his qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zR davlat mustaqilligining 35 yilligi xalqimizning tarixiy taraqqiyot yo'lini chuqur anglash, milliy o'zlik va g'urur tuyg'ularini

mustahkamlash, milliy qadriyat va an'analarni asrab-avaylash hamda kelajak avlod tarbiyasiga yanada katta e'tibor qaratish uchun muhim tarixiy-ma'naviy mezondir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zR Prez. 01.04.2026 PQ-120-son qarori — "O'zR davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida".
2. O'zR Prezidentining 2026-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi" esdalik nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zR Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.